

## O‘QUVCHILAR IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR O‘RNI

**Xolmatova Durдона**

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta’lim yo’nalishi, I bosqich magistranti,  
Ilmiy rahbar: T.J.Ismoilov  
e-mail:ismoilov\_t@jspi.uz*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalanib takomillashtirishning asosiy belgi va sifatleri bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ijodkor, qobiliyat, axborot, takomillashtirish, belgi, sifat, zamonaviy, qiyin, tavsif, baho, reja, ishchi, mustaqil, harakatchan.

\*\*\*

**Аннотация:** В статье излагается усовершенствование техническое творчество учащихся пользуясь основные знаки и качества информационных технологий.

**Ключевые слова:** творчество, способность, информация, усовершенствование, знак, качества, современный, сложный, характеристика, оценка, план, рабочий, независимый, энергичный.

\*\*\*

**Abstracts:** The article outlines the improvement of technical creativity of students using the basic signs and quality of information technology.

**Key words:** creativity, ability, information, improvement, sign, qualities, modern, complex, characteristic, assessment, plan, working, independent, energetic.

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘rni kattadir. Yoshlarga zamonaviy texnologiyalar asosida ta’lim berish orqali intellektual salohiyatga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllanishiga erishiladi.

Shunday ekan ijodkorlik va shaxsning ijodiy xislatlarini shakllantirish masalasiga o‘z navbatida pedagoglar, psixologlar, filosoflar va sotsiologlar ham o‘z e’tiborini qaratib kelmoqda.

Har qanday normal insonni va bolani ijodkorlik qobiliyatini o‘stirish mumkinligi psixologlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan.

Psixologiya-pedagogika fanlarining xulosasidan shu narsa ma’lumki, bolalarda ijodkorlik qobiliyatini yoshlik davridanoq rivojlantirish zarur. Pedagoglarning fikricha agarda bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish erta yoshdan boshlanmasa keyinchalik qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ijodkorlikka juda erta yoshdan bolalarni yo‘llash lozimligi qayd etiladi.

Qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda “Ijodkor yoshlar bilan ishlash dasturi” ni bajarish avvalo ijodkor yoshlarni qanday mezonlar asosida tanlab olish va uni qanday takomillashtirib, rivojlantirish kerakligini axborot texnologiyalari asosida ilmiy asoslashni taqozo etadi. Xo‘sh, o‘quvchining ijodkorlik darajasi qanday aniqlanadi va u qanday rivojlantiriladi?

Ijodkorlik darajasi avvalo har bir soha, mutaxassislik yoki fan bo‘yicha mutasaddi murabbiylar tomonidan o‘quvchilarning axborot texnologiyasiga qiziqishiga qarab aniqlab olish mumkin. Bunda bitta «qolip»ga tushadigan mezon yoki o‘lchov bo‘lishi mumkin emas. Bu yerda ijodkorlikni aniqlash individual imkoniyatlarni hisobga olish tamoyiliga asoslangan bo‘lishi muhim hisoblanadi. Bu jarayon:

Birinchi bosqichda shaxsni ijodkor deb tan olishni belgilovchi sifatlarning eng muhimlari ro‘yxatini tuzib olishni talab qiladi (*dastlabki mezon*).

Ikkinchidan esa ana shu belgilarni takomillashtirish va rivojlantirish sharoitlari muvofiqligini ta‘minlovchi vazifalarni shakllantirish va uni hal qilish yo‘nalishini to‘g‘ri belgilab olish zarur.

Uchinchidan, shaxsni tavsiflovchi ijodkorlik belgilarining qay darajada rivojlanib, takomillashib borayotganligini baholash ishlari amalga oshiriladi.

To‘rtinchidan, o‘quvchining ijodkorligini belgilovchi kuchli va kuchsiz (bo‘sh) tomonlari ro‘yxati tuzilib, qaytadan takomillashtirish rejasi ishlab chiqiladi.

Beshinchidan, belgilangan muddatda takomillashtirish zarur bo‘lgan ijodkorlik belgilari holati natijalari tahlil qilinadi.

Ijodkorlikning barcha belgi va sifatlarini umumiy holda ikkita guruhga bo‘lish mumkin (I bosqich misolida).

I. Har tomonlama aloqador sifatlarini belgilovchi («kommunikativ») xususiyatlari guruhi:

- o‘ziga bo‘lgan ishonchi;
- umuminsoniy fazilati;
- tanqidga, o‘ziga bildirilgan salbiy fikrlarga munosabati;
- ishni batartib bajarish qobiliyati (taktikaliligi);
- uddaburonliligi;
- jonkuyarligi;
- kishilarga yoqimliligi, yaqinligi va hokazo.

II. “Ishchi” xususiyatlari guruhi:

- maqsad sari intiluvchanligi;
- fikrida qat’iyligi;
- mohirligi va sifatlilikka moyilligi;

- mustaqilligi;
- vaziyatni tez va chuqur anglay olishi;
- harakatchanligi;
- tashabbuskorligi va hokazolar.

Mazkur belgilanishlar yetarli bo‘lmasa uni sharoitdan kelib chiqib, o‘zgartirish (kengaytirish) ham mumkin.

“Kommunikativ” xususiyatlari guruhida ishni batartib bajarish qobiliyatiga va “ishchi” xususiyatlari guruhidan mohirligi va sifatlikka moyilligi, vaziyatni tez va chuqur anglay olishi va harakatchanligiga asosiy e’tiborni qaratish zarur bo‘ladi va shu bo‘yicha ularni rivojlantirish ustida ko‘proq ish olib borish belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan har bir belgi va sifatlarni axborot texnologiyalari asosida batafsil tahlil qilib, yoritib berilsa, o‘quvchilar o‘zlarida mavjud bo‘lgan hislatlarni tezda seza biladi va o‘z-o‘zidan yuzaga chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Buning uchun namoyish qilinadigan belgi va sifatlarni dastlabki boshlang‘ich saviyadan yuqori saviyalarga takomillashtirish ishlarini amalga oshirish uchun bir necha darajadagi mezonlar tavsiya etiladi:

*I darajada.* Masala (muammo)ni rahbarning o‘zi qo‘yadi va o‘zi yechadi. O‘quvchi uni o‘rganib chiqadi va yodida saqlaydi.

*II daraja.* Rahbar masala yoki bironta muammoni qo‘yadi, uni hal qilish shartlarini tushuntiradi, mumkin bo‘lgan barcha variantlari bilan tanishtiradi va shular ichidan eng samaralisini tanlashni taklif qiladi.

*III daraja.* Rahbar faqat muammo va topshiriqni aytadi. O‘quvchiga uni har tomonlama tadqiqot qilish va hal qilish yuklatiladi.

*IV daraja.* O‘quvchining o‘zi bironta muammoni payqaydi va uni o‘zi hal qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi holatlarga e’tiborni qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- innovatsion va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- o‘quvchini yangi axborot texnologiyalariga oid bilimlar bilan boyitish;
- o‘quvchining tabiati, qobiliyati, ehtiyoji va moyilligiga moslashish;
- ijodkor shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni berishni yo‘lga qo‘yish;
- ijodkorlikni kompyuterda modullashtirish, loyihalashtirish, algoritmlash, faollashtirish asosida texnologiyalashtirish;
- kompyuterda o‘qitish darslarini takomillashtirib borish.

Ishga axborot texnologiyalari asosida yondoshish, ya’ni ijodkorlik sifatlarini aniq belgilab, uni chuqur tahlil qilish bilan tegishli zarur maslaxatlar

berib, kuzatish, o‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatini muvofiq boshqarish imkonini beribgina qolmasdan, o‘quvchining qaysi sifatini ko‘proq rivojlantirish zarurligini payqab, unga mas’uliyat bilan qarashiga va bo‘lajak kasbiga tushungan holda mehr qo‘yishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda ijodkorlikning asosiy belgi va sifatlarini axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali takomillashtirish eng dolzarb masala hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktablarida o‘qitish metodlari. Toshkent, “O‘qituvchi” 1990 y.

2. Sharipov Sh. Kasb ta’limi tizimida o‘quvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning uzluksizligi. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2005 yil.

3. Tog‘aev X., Ismoilov T.J. O‘quvchilar ijodkorligini faollashtirishda graf-sxemalaridan foydalanishning pedagogik texnologiyasi. “Yoshlarning o‘qishi va bandligi”, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2008 y. SamDU.

4. Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низамов, Ш. Ш., & Суюнов, У. Д. (2019). Педагогические основы совершенствования творческой личности студентов. *Поволжский педагогический поиск*, (2), 104-111.

5. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Каримов, О. О., & Юлдашев, М. (2019). Педагогические основы обеспечения стабильности роста и развития системы научно-технического творчества студентов (Модель "Руководитель-Участник-Творческая деятельность"). *Поволжский педагогический поиск*, (2), 112-119.

6. Тагаев, Х., & Алибаев, Т. Ч. (2017). РОТАЦИОННОЕ ОРУДИЕ (КАТОК-ФРЕЗА) ДЛЯ ПРЕДПОСЕВНОГО УНИЧТОЖЕНИЯ СОРНЯКОВ ПО ВОДЕ. In *Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства* (pp. 1232-1238).

7. Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Юсупов, К. Я., & Эргашев, Х. (2016). О МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ПО ПОЛИТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1678-1681).

8. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). ПАТЕНТ-КАК ЯДРО И СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ШАГ ВПЕРЕД К НОВЫМ ВЫСОТАМ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ИНЖЕНЕРНОЙ МЫСЛИ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1773-1776).

9. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).

10. Исмоилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низомов, Ш. Ш., & Юсупов, М. М. (2015). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТРУДА. *Н-34 Научно-практические основы устойчивого ведения аграрного*, 217.

11. Тагаев, Х., Оришев, Ж. Б., & Юсупов, М. М. (2015). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА В МУНИЦИПАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ АПК В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. In *ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АРИДНЫХ ЭКОСИСТЕМ* (pp. 187-189).

12. Тагаев, Х., & Эшанкулов, Х. М. (2015). РАЦИОНАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТОЙ СТУДЕНТОВ. In *INTERPERSONAL MECHANISMS OF KNOWLEDGE AND EXPERIENCE TRANSFER IN THE PROCESS OF PUBLIC RELATIONS DEVELOPMENT* (pp. 40-43).

13. Тагаев, Х., Эргашева, С. Т., Ахмедова, Г. М., & Юсупов, М. (2016). Повышение качества образования и подготовки кадров апк в современных условиях. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1780-1782).

14. Тагаев, Х. И. Т., & Исмаилов, Т. (1992). Совершенствование профориентационной подготовки в условиях обучения без отрыва от производства «Проблемы подготовки специалистов по профориентации в педвузе» Материалы Международная научно-практическая конференции.

15. Тагаев, Х. (2007). Механический способ уничтожения тростника обыкновенного в рисовых чеках. Материалы Международной научно-практической конференции, часть 2, Ташкент-2007г.

16. Тагаев, Х., & Толипов, У. К. (1993). Педагогические основы совершенствования творческой личности. *М.: Ротапринт ИСО РАО*

17. Н.В. Пушкин. Эвристика – наука о творческом мышлении, М., 1967

18. Б. Кедров. О творчестве в науке и технике Москва, “Молодая гвардия” 1987 г.

19. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of

Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.

20.Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.

21.Orishev, J., & Оришева, З. (2021). “METROLOGIK O’LCHOVLAR” MAVZUSINI O’QITISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH . *Физико-технологического образование*, 2(2).

22.Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГЛИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).

23.Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР КАСБИЙ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)

24.Orishev, J. (2020). ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ЛОЙИҲАЛИ ТАЪЛИМДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Физико-технологического образование*, 1(1)

25.Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎНАЛТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)

26.Убайдуллаев, С., Алибоев, Т.Ч., & Оришев, Ж. Б. (2020). МАТЕРИАЛЛАРНИ КЕСИБ ИШЛАШ АСБОБЛАР ВА ДАСТГОҲЛАР ФАНИДАН АМАЛИЙ-ЛАБОРАТОРИЯ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ УСЛУЛЛАРИ . *Научное знание современности*, (11), 26-29.

27.Алибоев, Т., Оришев, Ж., & Орипова, Ф. (2016). РАЗВИТИЕ ТЕХНИЧЕСКОЕ ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1681-1683).

28.Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72

29.Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. (2017). ГАРАНТИИ ВНЕДРЕНИЯ НОВОЙ ТЕХНИКИ ПО ЭКСПЛУАТАЦИОННЫМ ПАКАЗАТЕЛЯМ. In *Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства* (pp. 1242-1245).

30. Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортиқова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА” ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС” ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука*, (20-3), 62-63.

31. Низомов, Ш., & Оришев, Ж. Б. (2020). МЕТАЛЛАРНИНГ ХОССАЛАРИ МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Научное знание современности*, (2), 48-52.

32. Тагаев, Х., Оришев, Ж. Б., & Юсупов, М. М. (2015). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА В МУНИЦИПАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ АПК В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. In *ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АРИДНЫХ ЭКОСИСТЕМ* (pp. 187-189).

33. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алқаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).

34. Sharipov, S. (2020). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАР ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ Т И З И М И. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

35. Sharipov, S. (2020). ИДЕИ О ТВОРЧЕСКОМ ТРУДЕ В УЧЕНИИ КД УШИНСКОГО. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

36. Sharipov, S. (2020). ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

37. Sharipov, S. (2020). ТРЕБОВАНИЯ К ФОРМИРОВАНИЮ ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

38. Sharipov, S. (2020). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РЕАЛИЗАЦИИ МНОГОУРОВНЕВЫХ ПРОЦЕССОВ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

39. Sharipov, S. (2020). ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

40. Sharipov, S. (2020). ОПРЕДЕЛЕНИЕ СТАДИЙ ТВОРЧЕСКОГО ПРОЦЕССА. *Архив Научных Публикаций JSPI*.